



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIIY-AMALIY
MARKAZI



Respublika
Ta'lim Markazi

**2025-2026-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
9-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN
JISMONIY TARBIYA
FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

2025-2026-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING 9- SINFLAR O‘QUVCHILARI UCHUN JISMONIY TARBIYA FANIDAN YAKUNIY NAZORATIDA FOYDALANILADIGAN TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiya umumta‘lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiya fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – 9-sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 9-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli (valid) bo‘lishini ta‘minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta‘minlanadi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli burug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom
2. Jismoniy tarbiya fanidan 5-9-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

O‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025/2026 – o‘quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon amaliy shaklda o‘tkaziladi. 9-sinfni tugatgan o‘quvchilar jismoniy tarbiya fanidan ta‘lim dasturi bo‘yicha standartlar asosida belgilangan kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Har bir imtihon biletining topshiriqlari jismoniy tarbiya fani bo‘yicha 5-9 – sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada topshiriqlar bo‘yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O‘quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 10 ta bilet (5 ta qiz bolalar uchun, 5 ta o‘g‘il bolalar uchun) taqdim etiladi. Biletga o‘quvchiga 3 tadan (1 ta yengil atletika, 1 ta gimnastika va 1 ta sport o‘yinlari) amaliy topshiriq beriladi. Bilet topshiriqlarini amaliy bajarib berish vaqti, biletning o‘zida ko‘rsatilgan. Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun

oldin, ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

Topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Konstruktlar	Topshiriqlar soni
<p>GIMNASTIKA</p>	<p>Tayanib sakrash <i>O'g'il bolalar</i> uchun: Gimnastik "kozyol" dan ko'prikchani uzoqlashtirish va yaqinlashtirish bilan deysinib sakrashlar; uzunasiga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan tayanib sakrash (<i>o'g'il bolalar</i> 120 cm balandlikdagi gimnastika ko'prigi oralig'i 1 m oraliqda) oyoqlarni kerib sakrash.</p> <p><i>Qiz bolalar</i> uchun: 110 cm balandlikdagi uzunasiga o'rnatilgan gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni kerib, sakrab o'tish; yonlama qo'yilgan gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni bukib sakrab o'tishlar.</p> <p>Tirmashib chiqish 5 m li arqonga, qo'llar yordamida (vaqt hisobiga) tirmashib chiqish; to'xtab-to'xtab tirmashib chiqish (ma'lum balandlikda to'xtash uchun belgilar qo'yiladi);</p> <p>Osilishlar va tayanishlar <i>Qiz bolalar</i> uchun: past turnikda (balandligi 100 cm) oyoqlar yerga tayanib, qo'llarga osilgan holatda, qollarni bukish va yozish; gimnastik orindiqda qo'llarga tayanib qo'llarni bukish va yozish. <i>O'g'il bolalar</i> uchun: brusda qo'llarda tayangan holda tebranib, oldinga siltanish bilan tayanchga ko'tarilish; gimnastik brusda tirsakka tayanib turishdan tebranib, orqaga siltanish bilan tayanchga ko'tarilish; gimnastik brusda tayanib oldindan va orqadan tebranishda, yon tomonlarga 90° burilib sakrab tushishlar.</p> <p>Akrobatika <i>O'g'il bolalar</i> uchun: har xil dastlabki holatdan oldinga umbaloq oshish; 40-50 cm balandlikdagi buyumlar ustidan umbaloq oshib o'tish; yugurib kelib uzoqlikka umbaloq oshish; sherigi yordamida qo'llarda yoki boshda tik turish; <i>Qizlar uchun</i>: ikki marta oldinga, orqaga umbaloq oshish; kurakda turish; tik turgan holatdan "ko'prik" hosil qilish va yon tomonga aylanib turish.</p> <p>Muvozanatni saqlash mashqlari Depsinib yakkacho'pga chiqish; yakkacho'pga tayanishdan bir oyoqni oshirish bilan 90° burilib minib o'tirish,</p>	<p>1</p>

	<p>ikki oyoqda va holatlarini almashlab sakrashlar; yarim cho‘qqaygan holatda oyoqlar bilan siltanib yurish, oyoq uchlariga ko‘tarilib burilishlar, o‘ng (chap) oyoqda “qaldirg‘och” hosil qilish; o‘tirib burchak hosil qilish va qo‘llarga tayanib, oyoqlarni kerib orqaga siltanish bilan kerishib sakrab tushish.</p>	
<p>YENGIL ATLETIKA</p>	<p>Maxsus yugurish mashqlar texnikasi; past startdan chiqib 60 metrga yugurish; 200-300 metrdan 4-5 marta yurish bilan almashlab yugurish; turli masofalarga bir me’yorda 6 daqiqa davomida yengil yugurish.</p> <p>Mokisimon yugurish 4x10 m mokisimon yugurish</p> <p>Kross tayyorgarligi 800, 1000 m masofalarga yugurish; yurish bilan almashlab 6 daqiqa davomida yugurish; yo‘nalishni o‘zgartira borib past- baland yerlardan yugurish; 2000 m masofaga kross yugurish.</p> <p>Sakrash Balandlik va uzunlikka sakrash; yugurib kelib uzunlikka “oyoq bukish” usulida sakrash; yugurib kelib balandlikka “hatlab o‘tish” usulida sakrash.</p> <p>Uloqtirish Turli holatlarda turgan joydan tennis koptogini uloqtirish; tennis koptogini mo‘ljalga uloqtirish; tennis koptogini yugurib kelib uzoqlikka uloqtirish;</p>	<p>1</p>

<p style="text-align: center;">SPORT O‘YINLARI</p>	<p>Basketbol To‘pni bir qo‘lda olib yurish va uzatish; raqibni chetlab o‘tish; to‘pni bosh tomondan ikki qo‘llab uzatish; shaxsiy va jamoaviy himoyani maydonda ushlab usullarini o‘rgatish; 2x1x2 va 1x2x2 taktikalari; jarima to‘plarini savatga tashlash;</p> <p>Voleybol Juftlikda to‘pni, to‘r ustidan yuqoridan va pastdan bir – biriga uzatishlar; to‘rdan qaytgan to‘pni qabul qilish; to‘pni qabul qilish va uzatish; texnik usullari; to‘pni o‘yinga kiritish usullari; to‘r orqali zarba usullari; to‘siq qo‘yish (yakka va juftlikda), himoyalash usullari; hujumda va himoyada yakka, guruh va jamoaviy taktik harakatlar; to‘rga teskari turgan holda, to‘pni raqib maydondagi nishonga tushirish; to‘pni tepadan o‘yinga kiritish; to‘g‘ridan hujum zarbasi berish; to‘pni pastdan qabul qilish; Oldinga yiqilib, bir qo‘lda qabul qilish;</p> <p>Qo‘l to‘pi Gandbolda tezlikda joy almashish jarayonida har xil usulda to‘p uzatishlar, vosmyorka, oldinlab ketishda to‘p qabul qilishlar; himoya usullari, raqiblarni himoya maydoniga yaqinlashtirmaslik, masofada ushlab turishga erishish, hujum taktikasini 4x1, 3x2, vosmyorka, styajka ya‘ni raqib himoyasini chalg‘itish, to‘siq qo‘yish; darvozabonni texnik holati</p> <p>Futbol Harakatlanib kelayotgan to‘plarni oyoq panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to‘xtatish; uchib kelayotgan to‘pni sakrab bosh bilan urib qaytarishni bajarish; to‘pni harakat yo‘nalishini o‘zgartirib olib yurish, chalg‘itish harakatlarini qo‘llay olish; to‘pni raqibdan tortib olish; to‘pni darvozaga bosh bilan aniq yo‘naltirish ko‘nikma va malakalari; o‘ng va chap oyoq bilan uzoqqa tepish; o‘quvchilarni raqibdan to‘pni olib qo‘yish; tik turgan holatda to‘pni tovon bilan to‘xtatish; texnika va taktika usullari;</p>	<p style="text-align: center;">1</p>
	<p>JAMI</p>	<p>3</p>

IV. Kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti

Kognitiv daraja	Izohi	Topshiriqlar soni (ta)
Qo'llash (Q)	<p>Qo'llash (Q) — bu amaliy-produktiv daraja bo'lib, o'quvchidan egallangan jismoniy ko'nikma va harakat malakalarini muayyan vaziyatlarda aniq va samarali namoyish etishni talab qiladi.</p> <p>Bu darajada o'quvchi:</p> <p>Harakat texnikasini tanlaydi: Berilgan jismoniy yuklamani bajarishda eng xavfsiz va samarali usulni qo'llaydi (masalan, balandlikka sakrashda o'ziga mos usulni tanlash);</p> <p>Harakatlarni sintez qiladi: Bir nechta murakkab elementlarni birlashtirib, yaxlit mashqni bajaradi (masalan, gimnastika snaryadlarida bir necha elementli kombinatsiyani uzilishsiz ijro etish);</p> <p>Vaziyatga moslashadi: O'yin yoki musobaqa jarayonida o'zgaruvchan vaziyatga qarab harakat yo'nalishini, tezligini va kuchini taqsimlaydi (masalan, futbolda raqib harakatiga qarab to'pni olib o'tish yoki uzatish);</p> <p>Amaliy xulosa chiqaradi: Jismoniy sifatlarini (kuch, tezlik, chidamlilik) joriy mashq yoki normativ talabiga mos ravishda safarbar etadi va kutilgan natijani (amaliy natija) ko'rsatadi.</p>	3

V. Topshiriq turlari bo'yicha taqsimoti

TOPSHIRIQ TURI	IZOHI	TOPSHIRIQ SONI
Gimnastika (Amaliy)	O'quvchining akrobatik mashqlar majmuasini bajarishi, tana egiluvchanligi va tayanch harakat a'zolari muvofiqligini namoyish etishni talab qiladigan amaliy topshiriqlar.	1 ta
Yengil atletika (Amaliy)	O'quvchining tezkorlik, chidamlilik va kuch imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan	1 ta

	yugurish, sakrash yoki uloqtirish bo'yicha belgilangan normativlarni bajarishni talab etadigan amaliy topshiriqlar.	
Sport o'yinlari (Amaliy)	Jamoaviy sport o'yinlari (voleybol, basketbol, futbol, qo'l to'pi) bo'yicha texnik usullarni va taktik harakatlarni o'yin vaziyatida to'g'ri qo'llash ko'nikmasini tekshiruvchi amaliy topshiriqlar.	1 ta

VI. Baholash mezoni va ballni bahoga aylantirish tartibi

O'quvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida maksimum 100 ball bilan baholanadi. Jismoniy tarbiya fanidan ularning bilimi, jismoniy tayyorgarligi va o'quvchining harakat faoliyati ko'nikmalari (amaliy topshiriqlarni bajarishi) darajasiga ko'ra taqsimlangan. Topshiriqlar mazmuni va qiyinlik darajasi asosida turli xil ball bilan baholanadi. Har bir topshiriqning baholash mezoni baholash formatida berilgan. Quyida ballni bahoga konvertatsiya qilish jadvali keltirilgan:

Ballni bahoga aylantirish jadvali

Ball (%)	Baho	Izohi
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a'lo”

VII. Baholash shakli

O'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bosqichi, baholanadigan mazmun soha, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari quyidagi jadvalda berilgan:

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Baholash mezoni
1 bosqichli				
1.	Yengil atletika	Amaliy	Q	To'liq, to'g'ri va me'yoriy talablar asosida bajarilgan topshiriqqa 35 ball beriladi. Izoh: topshiriq belgilangan me'yorlarga muvofiq bajarilganda 9, 18, 26 yoki 35 ball ajratiladi.
2.	Gimnastika	Amaliy	Q	To'liq, to'g'ri va me'yoriy talablar asosida bajarilgan topshiriqqa 35 ball beriladi.

				Izoh: topshiriq belgilangan me'yorlarga muvofiq bajarilganda 9, 18, 26 yoki 35 ball ajratiladi.
3.	Sport o'yinlari	Amaliy	Q	To'liq, to'g'ri va me'yoriy talablar asosida bajarilgan topshiriqqa 30 ball beriladi. Izoh: topshiriq belgilangan me'yorlarga muvofiq bajarilganda 8, 15, 23 yoki 30 ball ajratiladi
			Jami	100 ball

VIII. Imtihan tartibi

Imtihan vaqtida o'quvchilar belgilangan sport formasi va maxsus poyabzallarda bo'lishi talab etiladi. Imtihan jarayonida ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya o'quv fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lim tizimining davlat ta'lim standarti.
2. Umumiy o'rta ta'limning jismoniy tarbiya fanidan milliy o'quv dasturi.

QIZ BOLALAR

1-BILET

1. Yengil atletika. Past startdan 60 metr masofaga yugurish.

Me'yor: (soniya) 9,5 – 10,0 – 10,5

2. Gimnastika. Muvozanatni saqlash mashqlarini gimnastik yakkacho'pda bajarish (oddiy yurish, o'tirib burilish, oyoqlarini silkitib yurish, "Qaldirg'och" hosil qilish, oyoqlarini silkitib yurish, tik holatda burilish, oddiy yurish, sakrab tushish).

Me'yor: To'g'ri bajarish texnikasini baholash.

3. Gandbol. Qo'l to'pini bajarish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga olib yurish.

Me'yor: (soniya) 6,8 – 6,9 – 7,0

2-BILET

1. Yengil atletika. 1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish.

Me'yor: (daqiqqa) 5,00 – 5,30 – 6,00

2. Gimnastika. Balandligi 110 cm bo'lgan gimnastik "kozyol" ustidan oyoqlarni kerib sakrab o'tish.

Me'yor: To'g'ri bajarish texnikasini baholash.

3. Voleybol. Voleybol to'pini o'yinga kiritish. To'pini 5 imkoniyatda raqib maydonining o'ng va chap zonasiga tushirish.

Me'yor: (marta) 3 – 2 – 1

3-BILET

1. Yengil atletika. Yurish bilan almashlab 6 daqiqa davomida yugurish.

Me'yor: (metr) 1200 – 1000 – 800

2. Gimnastika. Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasi: ikki marta oldinga va bir marta orqaga o'mbaloq oshish, kuraklarda turish, "ko'prik" hosil qilish.

Me'yor: To'g'ri bajarish texnikasini baholash.

3. Basketbol. Basketbol savatiga belgilangan jarima to'pini 8 imkoniyatdan tashlash.

Me'yor: (marta) 4 – 3 – 2

4-BILET

1. Yengil atletika. 4 x 10 metrda mokisimon yugurish.

Me'yor. (soniya) 10,0 – 10,5–11,0

2. Gimnastika. Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

Me'yor: (marta) 100 – 90 — 80

3. Voleybol. Voleybol to'pini ikki qo'lda bosh ustida o'z-o'ziga oshirish.

Me'yor: (marta) 20 – 15 – 10

5-BILET

1. Yengil atletika. Yugurib kelib kichik (150 gr) tennis to'pini uzoqlikka uloqtirish.

Me'yor: (metr) 28 – 23 – 18

2. Gimnastika. Gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukish va yozish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

Me'yor: (marta) 13 – 10 – 8

3. Futbol. Futbol to'pini "aut" dan o'yinga kiritish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

Me'yor: (metr) 8 – 7 – 5

O'G'IL BOLALAR

1-BILET

1. Yengil atletika. Past startdan 60 metr masofaga yugurish.

Me'yor: (soniya) 9,0 – 9,5 – 10,0

2. Gimnastika. Baland turnikda tortilish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

Me'yor: (marta) 9 – 7 – 5

3. Gandbol. Qo'l to'pini bajarish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga olib yugurish.

Me'yor: (soniya) 6,6 – 6,7 – 6,8

2-BILET

1. Yengil atletika. 2000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish.

Me'yor: (daqiqqa) 9,30 – 10,00 – 11,00

2. Gimnastika. Gimnastika ko'prigi bilan 1 metr oraliqda uzunasiga o'rnatilgan, balandligi 120 cm bo'lgan gimnastik "kozyol" ustidan tayanib oyoqlarni kerib sakrash.

Me'yor: To'g'ri bajarish texnikasini baholash.

3. Voleybol. Voleybol to'pini o'yinga kiritish. To'pini 5 imkoniyatda raqib maydonining o'ng va chap zonasiga tushirish.

Me'yor: (marta) 4 – 3 – 2

3-BILET

1. Yengil atletika. 1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish.

Me'yor: (daqiqqa) 3,40 — 4,00 – 4,30

2. Gimnastika. Qo'llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda 1 daqiqa davomida gavnani ko'tarish va tushirish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

Me'yor: (marta) 25 – 23 – 18

3. Basketbol. Basketbol savatiga belgilangan jarima to'pini 8 imkoniyatdan tashlash.

Me'yor: (marta) 5 – 4 – 2

4-BILET

1. Yengil atletika. 4 x 10 metrga mokisimon yugurish.

Me'yor. (soniya) 9,5 – 9,8 – 10,3

2. Gimnastika. Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

Me'yor: (marta) 90 – 80 – 70

3. Futbol. Futbol to'pini o'ng va chap oyoqda zarb bilan uzoqqa tepish (o'ng va chap oyoq natijalari yig'indisi baholanadi).

Me'yor: (metr) 60 – 55 – 50

5-BILET

1. Yengil atletika. Yugurib kelib kichik (150 gr) tennis to'pini uzoqlikka uloqtirish.

Me'yor: (metr) 45 – 40 – 33

2. Gimnastika. Polga tayangan holda, qo'llarni bukish va yozish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

Me'yor: (marta) 23 – 17 – 13

3. Futbol: Futbol to'pini "aut" dan o'yinga kiritish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

Me'yor: (metr) 12 – 10 – 8